


98. Sonni 3 ga bo'lish

Yondosh mavzu:
tabiatni asrash.

Bo'linuvchi, bo'luvchi,
bo'linma.




Shaklning
yuqoridan
ko'rinishini
toping.



1. Uch o'quvchiga maktab yonidagi maydonda o'sayotgan 12 ta daraxtni sug'orish topshirig'i berildi. Agar ular ishni baravardan bo'lib olgan bo'lsalar, har bir o'quvchi nechta daraxtga suv quyadi?

2. Yangi ko'chatlarni bir-biridan 3 m masofada o'tqazishdi. Birinchi ko'chat darvozadan 3 m masofada o'tqazildi. Sonli nurda sanoq bo'yicha qaysi ko'chat darvozadan 9 m masofada; 30 m masofada bo'lishini ko'rsating.



3. Taqqoslang.

$$18 : 3 \quad 24 : 3$$

$$12 : 4 \quad 15 : 5$$


$$12 : 3 \quad 21 : 3$$

$$6 : 2 \quad 9 : 3$$

$$30 : 3 \quad 18 : 3$$

$$y : 6 \quad y : 3$$

4. Teng tomonli uchburchakning perimetri 15 cm ga teng. Uchburchakning tomonlari uzunligi nimaga teng?



5. Ifodalar tuzing.


a) Zooburchakda quyon solingan 4 ta katak bor. Qanday qilib 12 ta sabzini ular o'rtasida o'zaro teng taqsimlash mumkin?

b) Darsda 3 o'quvchi O'zbekistonning 9 qo'riqxonasi haqida ma'ruza o'qishi kerak. Ular o'rtasida bu ishni qanday qilib teng taqsimlash mumkin?




6. Bo'lishning ushbu turlari bir-biridan qanday farqlanadi?

a) Uzunligi 6 cm bo'lgan kesma 3 ta teng qismga bo'lindi.



b) Uzunligi 6 cm bo'lgan kesma 3 cm li qismlarga bo'lindi.



7. Daftaringizga uzunligi 15 cm bo'lgan ikkita kesma chizing.

a) Birinchi kesmani 5 ta teng qismga bo'ling. Bitta qismning uzunligi nimaga teng?

b) Ikkinchi kesmani har biri 5 cm bo'lgan qismlarga bo'ling. Nechta qism hosil bo'ldi?



8. Amallarning to'g'ri tartibini ko'rsating va ifodani hisoblang.

$$900 - (337 + (455 - 186)) + 291$$



9. Misollarni namuna bo'yicha hisoblang.

$$9 \cdot 3$$

$$4 \cdot 3$$

$$7 \cdot 3$$

$$9 \cdot 2$$

Namuna

$$8 \cdot 3 = 24$$

$$3 \cdot 8 = 24$$

$$24 : 3 = 8$$

$$24 : 8 = 3$$



10. a) Uzunligi 12 m bo'lgan to'sin 4 ta teng qismga bo'lindi. Bitta qismning uzunligi nimaga teng?

b) Uzunligi 12 m bo'lgan to'sin har birining uzunligi 4 m dan bo'lgan qismlarga bo'lindi. Nechta qism hosil bo'ldi?

1 katakni 1 m sifatida olib, har bir hol uchun kesma chizing.